

THE SCIENTIFIC AND PERFORMANCE FOUNDATIONS OF THE NAY INSTRUMENT: IN THE LIGHT OF AL-FARABI'S TEACHINGS

Ergasheva Karomat Akhmuradovna

Lecturer, Faculty of Art Studies, Gulistan State University

Annotation : This article presents a scientific analysis of the musical art of ancient Central Asia and the symbolic role of the nay (reed flute) in expressing the harmony between humans and nature. Drawing upon Abu Nasr al-Farabi's "Kitab al-Musiqa al-Kabir" (The Great Book of Music), it explores the acoustic, physiological, and aesthetic characteristics of the nay sound, emphasizing its place within the structure of musical thought. The study also examines the theoretical and practical aspects of developing auditory skills, intonation accuracy, timbral sensitivity, and rhythmic perception in nay performance. Moreover, it links al-Farabi's philosophical and musical concepts to contemporary nay performance practice, scientifically substantiating their role in enhancing musical perception and aesthetic consciousness.

Keywords: Musical performance, al-Farabi, nay (reed flute), ancient music, Eastern philosophy, acoustics, timbre, intonation, auditory perception, maqom, spirituality, musical cognition, performance, breathing, aesthetic thinking, musicology.

NAY CHOLG'USINING ILMIY VA IJROCHILIK ASOSLARI: FOROBIY

TA'LIMOTI MISOLIDA

Ergasheva Karomat Axmuradovna

Guliston davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi.

Annotatsiya : Maqolada qadimiy Markaziy Osiyoda musiqa san'ati va nay cholg'usining inson va tabiat uyg'unligidagi ramziy o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Abu Nasr Forobiyning "Kitab al-Musiqa al-Kabir" asari asosida nay tovushlarining akustik, fiziologik va estetik xususiyatlari yoritilib, uning musiqiy tafakkurdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, nay ijrochiligida eshitish, intonatsiya, tembr sezgirligi va ritmik idrokni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Maqolada Forobiyning musiqa haqidagi qarashlarini zamonaviy nay ijrochiligi bilan bog'lab, musiqiy idrok va estetik tafakkur rivojiga ilmiy asos yaratganligi hususida so'z brogan.

Kalit so'zlar: Cholg'u ijrochiligi, Forobiy, nay, qadimiy musiqa, Sharq tafakkuri, akustika, tembr, intonatsiya, eshitish qobiliyati, maqom, ruhiyat, musiqiy idrok, ijrochilik, nafas, estetik tafakkur, musiqashunoslik.

Qadimiy Markaziy Osiyoda musiqa san'ati inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik mahsuli sifatida shakllangan. Nay, ud, doira kabi cholg'ular xalqning turmush tarzi, diniy marosimlari, urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Arxeologik topilmalar, jumladan Baqtriyadagi Sangin shahri xarobalaridan topilgan qo'sh nayli haykal tasviri, o'sha davrlarda musiqa inson hayotining

ajralmas qismi bo'lganini ko'rsatadi. Nay cholg'usining ilk turlari sifatida sopol nay, g'ajir nay, qo'shnayli alvos va bulamonlar tilga olinadi. Ayniqsa g'ajir nay suyakdan yoki qamishdan yasilib, cho'ponlar orasida keng tarqalgan. Shu bois nay Sharq musiqiy tafakkurida ruh va nafosat timsoli sifatida qaralgan. Bu qarashlar keyingi asrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Sharq musiqiy tafakkuri tarixida buyuk mutafakkir va musiqashunos Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug Tarxon Forobiy (873–950) alohida o'rin tutadi. U o'rta asr Sharq falsafasi, tabiiy fanlar, mantiq, musiqa va san'at sohalarining yirik vakili bo'lib, musiqa ilmini ilmiy tizimga solgan birinchi allomalardan biridir. Forobiy o'z asarlarida musiqa san'atini faqat amaliy faoliyat sifatida emas, balki ilmiy, akustik va falsafiy qonuniyatlarga asoslangan tizim sifatida izohlagan. Manbalarga ko'ra, Forobiy ud, tanbur, g'ijjak, chang, qonun va nay asboblarining mohir ijrochisi bo'lgan. Ayniqsa, u nay sozining tovush hosil qilish mexanizmi, akustik xususiyatlari va intonatsion tizimi haqida chuqur ilmiy fikrlar bildirgan. Forobiy nazariyasiga ko'ra, nay inson nafasining tabiiy kuchi bilan bog'langan eng qadimiy cholg'ulardan biri bo'lib, u "insonga o'z ruhiy holatini musiqiy tovushlar orqali ifodalash imkonini beruvchi vosita" sifatida talqin etiladi.

Forobiy nayni inson ovozigacha eng yaqin cholg'u deb bilgan. U nafas, rezonans va tovush tebranishlari orasidagi uyg'unlikni tahlil qilib, "Musiqa ilmining asoslari" ("Kitab al-Musiqa al-Kabir") asarida nay tovushlarining chastota nisbatlari, ularning garmonik tuzilishi va diapazoni haqida batafsil yozib qoldirgan. Alloma nayning nafaqat estetik, balki fiziologik va ruhiy ta'sir kuchi borligini ham ta'kidlagan. Forobiy davrida nay Sharq xalqlarining marosim, diniy, va saroy musiqasida muhim o'rin tutgan. U o'z davrida mavjud bo'lgan nayning turli shakllari – uzunligi, teshiklar soni, ovoz diapazoni bilan farqlanuvchi variantlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Uning bu boradagi tadqiqotlari keyingi asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya va Arab dunyosida nay ijrochilik maktablarining shakllanishiga zamin yaratgan. Forobiy nafaqat nazariy, balki amaliy ijodda ham yuksak darajaga erishgan. U nay chalish orqali tinglovchilarning hissiyotlariga ta'sir ko'rsata olgan, bu esa keyinchalik xalq orasida Forobiyni "nay chalib, odamni yig'latgan va uxlatgan dono musiqachi" sifatida tasvirlovchi afsonalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Demak, nay san'ati tarixi va nazariyasida Forobiyning hissasi beqiyosdir. U nayni inson ruhiyati va nafas bilan bog'liq tabiiy hodisa sifatida tahlil qilib, uni Sharq musiqiy tafakkurining markaziy timsoli darajasiga ko'targan. Bugungi kunda ham Forobiy g'oyalari nay ijrochiligi, nafas texnikasi va musiqiy ohanglarning inson ruhiyatiga ta'siri haqida o'rganilayotgan ko'plab tadqiqotlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda nay xalq kuylarida, maqomlarda va ansambllarda yetakchi cholg'u sifatida o'z o'rniga ega. U turli xalqlarda turlicha shakl va nomlarda saqlanib qolgan: ney, duduk, kaval, tutak, limba, di va boshqalar. Bu xilma-xillik qadimiy nay madaniyatining jahon musiqasiga keng ta'sirini ko'rsatadi. Forobiy merosi va qadimiy nay madaniyati o'zaro bog'liq bo'lib, insonning ichki dunyosi va tabiat uyg'unligini musiqiy tovush orqali anglash g'oyasini birlashtiradi.

Cholg'u asbobining aniq sozlanmasligi har qanday mayda intonatsion noaniqliklarga nisbatan yuqori sezgi va ayrim yuqori tovushlarni lab harakatining zo'riqishi orqali to'g'rilashni talab qiladi. Nay cholg'usining tovush qatori o'ziga xos rangbarang tembridadir. Tovush tembr xususiyatlarini sezish musiqiy mashq mashg'ulotlarida tovush tembriga e'tiborni yo'naltirish bilan erishiladi va rivojlantiriladi. Mayda intonatsion noaniqliklarni sezish bilan barobar tembrni xis qilish nay cholg'usi ijrosida katta o'rin tutadi. Intonatsiya va cholg'u tembrini xis qilish sifati ijrochilarda bir xil emas. Tovush tembriga o'ta sezgir ijrochi o'z ustida qattiq ishlashi orqali intonatsion soflik bilan bir qatorda

tembr sifatining yaxshilanishiga erishadi. O'ziga talabchan bo'lmagan ijrochi ayrim tovushlarning sifatsizligi va to'liq bo'lmagan tembrga o'rganib qoladi. Nay cholg'usi ijrochisi uchun tovush eshitish (tovush ajratish) qobiliyati kifoya. Lekin o'ta yuqori tovush sezish (taqqoslamay ajratish) qobiliyati sohibi bo'lgan ijrochilarning imkoniyatlari ancha katta.

Nay cholg'usida tovush tembrlarini aniqlash va eslab qolish jarayoni ijrochilik mahoratini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu cholg'uning tembr rang-barangligi naychiga tovush bo'yoqlarini tez farqlash, ularni esda saqlash hamda musiqiy tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Nay ijrochisi uchun tovushlarning yuqori diapazonini tasavvur qilish, topish va amalda ijro etish qobiliyati — musiqiy eshitish va motorika uyg'unligining natijasidir. Bu jarayon tovush tasavvuri, harakat sezgisi va musiqiy idrokning uzviy bog'lanishi asosida shakllanadi.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishda tizimli mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya sofligini saqlash, asarning tonalligini aniqlash, lad funksiyalarini tushunish va akkord mashqlarini muntazam bajarish orqali eshitish aniqligi mustahkamlanadi. Solfedjio mashqlari musiqiy idrokni faollashtiruvchi asosiy pedagogik vosita bo'lib, u o'quvchining tovushni eshitish, eslab qolish va aniq qayta ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantiradi. Diktant yozish mashqlari — bir ovoqli va ikki ovoqli shakllarda — musiqiy tafakkurni yanada takomillashtiradi va eshitish analizatorini faollashtiradi. Mashg'ulotlar davomida kamerton yoki aniq tovush balandligiga ega cholg'ular yordamida nayning lad zaminini tekshirib borish, intonatsiya aniqligini nazorat qilish zarur. Bu jarayon eshitish sezgisini o'tkirlashtiradi va tovush balandligini to'g'ri aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nay ijrochisi o'z cholg'usining tembrini farqlay olish, tovush balandliklarini cholg'usiz tasavvur qilish va eshitgan tovushni mental tarzda modellashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bir qatorda ritmik sezgi ham tarbiyalanadi. Ritmni aniq his etish, cho'zimlarning nisbatini anglash va amaliy ijroda to'g'ri qo'llay olish musiqiy tafakkurning tarkibiy qismidir. Boshlang'ich bosqichlarda pedagog ritmik mashqlar orqali o'quvchida vaqt va harakat sinxronligini shakllantiradi, bu esa keyinchalik murakkab asarlarni to'g'ri ifoda etish imkonini beradi.

Shunday qilib, nay ijrochisining musiqiy eshitish, intonatsion aniqlik va ritmik sezgilarini rivojlantirish uzluksiz va tizimli mashg'ulotlarni talab etadi. Bu jarayon nafaqat texnik mahorat, balki estetik idrok, musiqiy tafakkur va professional ijrochilik madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir.

Guliston davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "An'anaviy xonandalik" kafedrası qoshida bir necha yillar davomida "nay" sozi bo'yicha ijrochilik, pedagogik va ilmiy faoliyat olib borish tajribasi shuni ko'rsatadiki, Abu Nasr Forobiy merosida nay cholg'usining nazariy va estetik asoslari zamonaviy musiqa ta'limi uchun ham dolzarb ilmiy manba hisoblanadi. Forobiy ta'limotida nay inson nafasining tabiiy kuchi va ruhiy holatini ifodalovchi musiqiy vosita sifatida talqin etilishi, hozirgi o'quv jarayonida nafasni to'g'ri boshqarish, tembrni aniqlash va intonatsion tozalikka erishish kabi amaliy jihatlar bilan uyg'unlashadi. Pedagogik tajribada Forobiy nazariyasi asosida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar talabalarda musiqiy eshitish, ritmik sezgi va estetik tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, Forobiyning musiqiy merosi, xususan nayga oid qarashlari, hozirgi an'anaviy ijrochilik va musiqa ta'limida ijodiy, nazariy hamda tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashova Karomat Axmuradovna. (2025). MILLIY MUSIQIY TARBIYA JARAYONLARIDA PEDAGOGLARNING SHAKLLANISHI. Ustozlar uchun , 74 (1), 174-178. <https://scientific-jl.com/uuc/article/view/22545>
2. Yunusov, R. Nay cholg'usi va uning ijrochilik xususiyatlari. — Toshkent: “San’at”, 2016.
3. Saidov, N. Forobiy va musiqa falsafasi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014.
4. Farmer, H. G. Historical Facts for the Arabian Musical Influence. — London: Oxford University Press, 1965.
5. **Forobiy, Abu Nasr.** Fozil odamlar shahri. — Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993.
6. An'anaviy xonandalik yo 'nalishi bo 'lajak mutahasislarining pedagogic Kompetensiyasini rivojlantirish va bu jarayonda duch kelinadigan muammo va yechimlar. M. G Akbarova - Oriental Art And Culture, 2023